

ROMANLARDA IJTIMOIIY MASALA TALQINI

Maftuna Quralboyeva,
ToshDO‘TAU 1-bosqich magistri

Annotatsiya. Maqolada epik turning katta janri hisoblangan romanlar va unda ijtimoiy masalalarning talqini, yoritilishi haqida mulohaza bildirilgan. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asarlari tahlil maydoniga olib kiriladi. Ushbu romanlarda ijtimoiy masalalarning talqini haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: roman, ijtimoiy masala, “Otamdan qolgan dalalar”, “Tushda kechgan umrlar”, tahlil.

XX asr o‘zbek nasri rivojiga munosib hissa qo‘shgan Tog‘ay Murod asarlarida milliy o‘zlik, g‘urur tushunchalari alohida yoritilgan. Yozuvchining “Yulduzlar mangu yonadi”, “Oydinda yurgan odamlar”, “Ot kishnagan oqshom” qissalarida kurash, ko‘pkarining xalqimiz tomonidan e‘zozlanishi, avlodning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasiga ta‘siri mutolaa jarayonida reallashib boradi. Polvon-u chavandoz tiynatidagi o‘zlik asar voqealari silsilasida uqib boriladi. Oriyat uchun bolalikdan kurashganlar kelajak poydevorini mustahkamlaganlar. Millatning asl o‘g‘loni, posboni elining sha‘ni, ori uchun mas‘ullikni his etib, halollik, odillik maslagiga sodiq bo‘lishga intilgan.

Muallif o‘zbek xalqining ko‘nglidagi dard-u armonlarini yoritish maqsadida izlanishda davom etib, “Otamdan qolgan dalalar” romanini yaratadi. Sobiq tuzum paytida paxta siyosati muhim bo‘lib, aksariyat mehnatkashlar qahramonligi, zabardastligi yoritilgan. Ular dalalarda zavq-u shavq ila ter to‘kib, ko‘ksini medalga to‘ldirib, faxrlanib yurganlar. Oq oltin millatimiz uchun qadrli, e‘zozli ekani madh etilgan-u, uning qora mehnatiga e‘tibor qaratilmagan. Tog‘ay Murod paxtakorlar bilan birga dalalarda mehnat qilib, ular turmush tarzini ko‘rib, asariga material yig‘adi. Moskvaga borib, maxfiy xizmat idoralarida “paxta ishi” bo‘yicha qamalgan minglab o‘zbek dehqonlari hujjatini o‘rganadi. Romanda uch avlod maslagi, tutumi voqealar rivojini taranglashtirib boradi. O‘z e‘tiqodida mustahkam, zamin-u suvni pokiza asragan bobo-Jamoliddin haromni tan olmay, makonini o‘zgartirdi. Ota-Aqrab dushmanga tik kelib, o‘z yurtida shahidlik maqomiga erishdi. Iste‘dodli rejissor Shuhrat Abbosov: ”Otamdan qolgan dalalar” romani qahramonlari Jamoliddin ketmon, Aqrab qo‘rboshi kurashchan odamlar, ular bir umr qadrlarini adl tutib o‘tdi, bosh egmadi. Ular bizning tariximiz, bizning ajdodlarimiz” – deya mulohaza bildirgan

O‘g‘il - Dehqonqul aro yo‘lda yolg‘iz qolib, bolalikdan mutelikka muhtalo bo‘ldi. Maktab o‘quvchilari beshinchi sinfdan paxta dalasiga safarbar etilib, mehnat

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

mashaqqatini erta his qiladi. Kattalar hayotini boshidan kechirayotgan, kunlik normani bajara olmay kaltaklanayotgan, qo‘li kosov bolalar - millat kelajagining zabun ahvoli kishini o‘ylantiradi. Muallif paxta dalasida vafot etgan Ziyod timsolida muammoning muhim jihatiga ahamiyat qaratadi. Bu qalbli bola o‘sha davr tuzumining qurboniga aylanadi. “Ot kishnagan oqshom” qissasida Ziyodulla beshinchi sinfdan jonzotga qiziqib, xohishi, intilishi ortidan otlar bilan oshno bo‘lsa, romanda bola loqaydlik bois vafot etadi. Rahbarlar esa bunga beparvo qaraydilar.

Dehqonqul dalada tinimsiz mehnat qilib, brigadirga aylansa ham uni kattalar boshqarishiga ko‘nikib qolgani partiya vakili Klara Xodjayevna munosabatida kuzatiladi. Kompozitsion sathda oddiy dehqonlarni mansab egalari nazorat qilishi, paxta parvarishida noto‘g‘ri maslahat berib, natijasi uchun sodda mehnatkashni jazolashida dramatism kuchayib boradi.

Daladagi ish vaqti xususida soxta ma‘lumot berib, ya‘ni soat 9dan 18ga qadar bandligi aytilgan o‘rinlardi kinoyaviy pafos ortadi. Aslida voqealar silsilasida Dehqonqulning tong sahardan yarim tunga qadar dalasida har qanday iqlim sharoitida tinimsiz ishlashi kuzatiladi. “Paxta ishi” bo‘yicha markazdan tekshiruv kelganda minglab mehnatkashlar tergovga jalb qilinar ekan, Dehqonqul ham bu sinovdan chetda qolmaydi. Adib qamoqxonadagi nohaqliklarni dialoglar vosidasida ta‘sirli yoritib boradi. Sho‘ro mustamlakasi tazyiqi ostidagi millatning sodda, mute dehqonlari mahbuslik, tutqunlikda xor bo‘lgani dialog-u monologlar vositasida ayonlashadi.

O‘tkir Hoshimov asarlarida xalqimiz ma‘naviy hayotidagi turli jarayonlar qalamga olingan. Adibning “Tushda kechgan umrlar” romanida davrning ikki muammosi voqealar rivojini taranglashtirib boradi. Ota va farzand qismatidagi fojilik afg‘on urushi, paxta siyosati borasidagi real holatni kitobxon ko‘z o‘ngida jonlantiradi. Umri davomida halol mehnat qilgan otaning hayoti hush-u tush oralig‘iga muqoyasa etilishida adolat-u bo‘hton masalasi ko‘ndalang qo‘yiladi. Paxta ishi bois qamalgan minglab kishilarga zulm qilinishi, aybsiz aybdorlarning qabih kimsalar tomonidan sitam ko‘rishi dramatismni kuchaytiradi. Davrdagi muhim siyosiy jarayonlar millatning zahmatkash vakillarini mahkumlikka muhtalo etgani, inson shaxsini beqadr aylagani turfa motivlar vositasida anglab boriladi. Adib kishilarni har qanday vaziyatda o‘zligini saqlab qolishga intilishi, sabr ila mushkulotni yengishiga ishonch bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Men qaytib kelaman. Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida. To‘plam. T.2004

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

2. Umida, R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.
3. Rasulova, U. (2024). Poetic Research in Modern Story-Writing. *SPAST Reports*, 1(1).
4. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
5. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
6. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
7. 7.Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.
8. 8.Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
9. 9.Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.